



UDK: 551.453 (575-1)

Feruza MELIBOYEVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
E-mail: Feruza@bk.ru

NamDU Ekologiya kafedrasini mudiri, g.f.n S.T. Abduraxmanov taqrizi asosida

DISEASE OUTBREAKS AND HUMAN HEALTH UNDER THE INFLUENCE OF ENVIRONMENTAL POLLUTION

Abstract

This article provides an assessment of the most common diseases among the population of the Kokan oasis based on the natural, economic and medical geographical conditions. In particular, the types of diseases were analyzed according to the administrative units included in the Ko'kan oasis.

Key words: Environment, health, morbidity, type of disease, foci of disease, anemia, nervous system, respiratory system, population.

ВСПЫШКИ ЗАБОЛЕВАНИЙ И ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА ПОД ВЛИЯНИЕМ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Аннотация

В данной статье дана оценка наиболее распространенных заболеваний среди населения Коканского оазиса исходя из природных, хозяйственных и медико-географических условий. В частности, анализировались виды болезней по административным единицам, входившим в состав Коканского оазиса.

Ключевые слова: Окружающая среда, здоровье, заболеваемость, тип заболевания, очаги болезни, анемия, нервная система, органы дыхания, население.

ATROF-MUHITNI IFLOSLANISHI TA'SIRIDA KASALLIK O'CHOQLARINI YUZAGA KELISHI VA INSON SALOMATLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo'qon vohasi aholi orasida eng ko'p uchrayotgan kasalliklarning tabiiy, iqtisodiy va tibbiy geografik sharoitdan kelib chiqib baholash nazarda tutilgan. Xususan Qo'qon vohasi tarkibiga kiruvchi ma'muriy birliklar bo'yicha kasallik turlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, salomatlik, kasallanish, kasallik turi, kasallik o'choqlari, kamqonlik, asab tizimi, nafas olish tizimi, aholi qatlami.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq, xalqimiz salomatligini saqlash, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi, sanitariya-epidemiologiya masalalari davlatimizning siyosiy ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar inson uchun, uning manfaati va turmush farovonligini yanada yaxshilash hamda sog'lom yashashiga qaratilgandir.

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida yuqumli kasalliklar o'rniga yuqumli bo'lmagan hamda insonlar hayotiga xavf soluvchi kasalliklarning kirib kelishi, aholining kasallanish, nogironlik, o'lim sabablari orasidagi yurak, qon-tomir, saraton, kamqonlik va o'pkaning nospetsifik kasalliklari yetakchi o'rinlarni egallashi, dunyo aholisi orasida giyohvandlik, toksikomaniya, OITS kabi kasalliklar keng tarqalmoqda. Jamoa salomatligiga salbiy ta'sirga ega bo'lgan omillar bir davlat chegarasidan chiqib, dunyo miqyosida o'z yechimini topishi lozim bo'lgan masalaga aylandi.

Yer sharida atrof-muhitning, iqlimning va aholi turmush tarzining o'zgarishi, aholi zichligi, migratsion jarayonlarning faollashuvi ba'zi bir virusli yuqumli kasalliklarning dunyo bo'ylab epidemiya, pandemiya tarzida keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoda yashayotgan odamlarning o'rtacha yoshi o'tgan asrning boshlarida 35 yoshni tashkil qilgan bo'lsa, zamonaviy tibbiyotning va yangi texnologiyalarning yordami tufayli bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 72 yoshni tashkil etmoqda. Insoniyat azaldan o'lat, vabo, chinchechak, poliomielit kabi yuqumli kasalliklar bilan kasallangan va katta talafotlar ko'rgan.

Aholi salomatlik holatining yuzaga kelishida, kasalliklar va ularning kelib chiqishi hamda tarqalishida, uzoq umr ko'rishida hududiy omillar, tabiiy va ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Insoniyat umrining uzoqligiga avvalambor uni o'rab turgan atrof-muhit, iqlim, irsiyat, turmush tarzi, turli xil kasalliklar kabi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

XI asrga kelib insoniyat oldida misli ko'rilmagan kasallik turlari yuzaga kelmoqda. Buning natijasida ko'p millionli xalq va millatlarni yashashiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Bugungi kunda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosbatlar eng yuqori nuqtaga chiqishga ulgurdi. Tabiatni jamiyatga aks ta'siri sifatida biz bugun turli hildagi kasalliklarni paydo bo'lishi bilan baholamoqdamiz. Xususan, tabiat ne'mati bo'lgan suvda, nafas olayotgan havoyimizda, iste'mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarimizda va umuman ehtiyojimiz uchun ishlatiladigan tabiiy resurslarimizdan foydalanishimizda o'ta ehtiyotkorlikni his qilmoqdamiz.

Bir mamlakatning ayrim tumanlaridagi ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili ham, sog'liqni saqlashda muhim ahamiyat kasb etishi va aniq amaliy natijalarga olib kelishi mumkin. Kasalliklarning kelib chiqishining hududiy farqlanishiga aholini etnik kelib chiqishi, iqtisodiy omillar va turmush tarzi muhim rol o'ynaydi.

Farg'ona vodiysida, qolaversa respublikamizda o'ziga xos tarix va madaniyatga ega bo'lgan qadimiy vohalardan biri bo'lgan Qo'qon vohasi bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida eng tezda rivojlanib borayotgan mintaqalardan hisoblanadi.

Qo'qon vohasida hozirda 275,2 ming dan ortiq aholi istiqomat qilmoqda. Sanoat va ishlab chiqarishda meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, oziq-ovqat, to'qimachilik, hunarmandchilik, poyabzal va charm-galantereya, kimyo, farmatsevtika, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, zamonaviy qurilish materiallari, kabilarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, amalda bu sohalarini yanada rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi zamonaviy ishlab chiqarish tez va sifatli mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan. Sanoat ishlab chiqarishda yuzaga kelayotgan chiqindilarini tartibga solish, qayta ishlash va atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish masalalari nafaqat, bizni mintaqamizda balki dunyo miqyosida ham eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugun aholi salomatliga ta'siri ortib borayotgan atrof-muhit ifloslanishini hududiy baholash va tahliliy ishlarni olib borish orqali chuqur va samarali hulosalar chiqarish zamon talabi hisoblanadi.

Qo'qon vohasida atrof-muhitning ifloslanishi ta'sirida yuzaga kelayotgan kasalliklar aholining yoshi, fiziologik hususiyati va tashqi ta'sirlarga qay darajada munosabat bildirishiga bog'liqdir. Hususan aholini 0-14 yoshgacha bolalar, 15-17 yosh o'smirlar, 18 yosh va undan yuqori yoshdagilarda ham kasallikni yuqtirib olishi yoki chalinish alomatlari bir hududda bo'lsa ham yosh nuqtai nazaridan farqlanishi yaqqol kuzatiladi. Qo'qon vohasi hududiga kiruvchi O'zbekiston, Uchko'prik, Furqat, Beshariq, Dang'ara tumanlarida aholi joylashuvida kasallik o'choqlari hududiy ko'rinish kasb etgan.

Qo'qon vohasida ishlab chiqarishni atrof-muhitga ta'siri natijasida aholi salomatligi hududiy tavofutlarga ega. Bu o'z navbatida hududda atrof-muhitga qanday holatda is-gazi chiqarilayotganligi, aholini mazkur ifloslanishni qanday ta'sir oqibatlariga duchor bo'layotganligi esa kasallik turlari bilan xarakterlanadi. Xususan, vohadagi tumanlarda ishlab chiqarish majmualari bir biridan farq qiladi. Ishlab chiqarishni aholi salomatligiga ta'siri va ijtimoiy muhitni o'ziga xos bo'lgan hususiyatlari natijasida yuzaga kelishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib ekologik muhitning yomonlashuvi, kundalik iste'mol qilinayotgan mahsulotlarda kerakli darmondorilarning yetishmasligi natijasida bir qancha kasalliklar yuzaga kelmoqda. Bunday kasalliklardan biri bo'lgan kamqonlikdir. Qon tarkibidagi gemoglobin miqdorining pasayib ketishi kamqonlik kasalligiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda nafaqat Qo'qon vohasida balki, respublikamizning ko'plab hududlarida kamqonlik bilan kasallangan bemorlar sonini ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qo'qon vohasi tarkibidagi O'zbekiston va Dang'ara tumanlaridagi aholining umumiy kasallanishdagi ko'rsatkichining qariyb 21% bevosita kamqonlik kasalligi bilan kasallangan bo'lsa, Beshariq tumanida bu ko'rsatkich 18,6%, Uchko'prik tumanida 19,9 %, Qo'qon shahrida 18,9 % ni hamda Furqat tumanida 13,0 ni tashkil etmoqda. Aholini nafas olish a'zolari bilan kasallanishi Uchko'prik tumani eng yuqori bo'lib 21,6 %, Qo'qon shahrida 20,0 %, O'zbekiston tumanida 16%, Dang'ara tumanida 14,9 % ko'rsatkichga ega. Eng kam kasallanish esa Furqat tumanida kuzatilgan bo'lib umumiy kasallanish hisobida 1,0% tashkil etmoqda (1-jadval). Nafas olish tizimi bilan bog'liq kasalliklar unchalik xavfli ko'rinishda-da, aslida o'lim xavfi juda yuqori kasalliklar guruhiga kiradi. Hozirgi paytda aholi orasida uchraydigan nafas a'zolari kasalliklarining asosiy qismini bronxial astma, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi va pnevmoniya tashkil kiladi. Albatta mazkur kasallikni keng tarqalishiga yuqorida qayd etilgan tumanlardagi ishlab chiqarish va uning ta'siridan yuzaga kelayotgan allergenlari hususan, tikuvchilik va to'qimachilik sanoati changlari, avtotransport chiqindilarini tas'rini kattaligi bilan baholanmoqda.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning "Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanida yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni, logistika va savdo tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida 15 gektar maydonda yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, logistika va savdo komplekslarini jahon andozalariga mos holatda, atrof-muhitni isloslanishiga yo'l qo'ymagan sharoitda tashkil etish vazifalari yuklatilgan.

Umuman vohada yuzaga kelayotgan kasalliklarni asosiy qismi ishlab chiqarish va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlar natijasida yuzaga kelmoqda. Keyingi yillarda aholini yosh ko'rsatkichlarida ham kasallanish holatlari foizlar hisobida o'zgarishga ega.

18 yoshdan yuqori bo'lgan aholi orasida umumiy kasallanishni klinik belgilari 0-17 yoshgacha bo'lgan aholi qatlamiga nisbatan kamqonlikda 6,3 % ga, asab tizimi kasalliklari 4,0 % ga, nafas olish a'zolari bilan kasallanish esa 7,5 % yuqoriroq ko'rinishga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qo'qon vohasida kasalliklarning geografik tarqalishiga sanoat korxonalarini hududiy joylashuvi bilan birgalikda kundalik ijtimoiy ish holatlari, hududlarning har xil sharoiti va xususiyatlari ham bog'liqdir. Gap aholi yashayotgan hududni kasallanish ko'rsatkichiga.

1-jadval

Qo'qon vohasida aholi kasallanishining hududiy ko'rsatkichlari tumanlar kesimida

№	Tumanlar	Aholi soni, ming kishi	Yosh ko'rsatkichi									Umumiy kasallanishni axoli soniga nisbati %		
			0 – 14 yoshlilar			15-17 yoshlilar			18 yodan yuqori yoshdagilar					
			Kamqonlik	Asab tizim kasalliklari	Nafas olish a'zo kasalliklari	Kamqonlik	Asab tizim kasalliklari	Nafas olish a'zo kasalliklari	Kamqonlik	Asab tizim kasalliklari	Nafas olish a'zo kasalliklari	Kamqonlik	Asab tizim kasalliklari	Nafas olish a'zo kasalliklari
1	O'zbekiston	238,6	10595	1021	18485	3492	248	3527	38224	3555	17719	21,0	2,0	16,0
2	Furqat	117,6	6672	539	4104	1204	74	861	7788	2762	6869	13,0	2,0	1,0
3	Beshariq	228,0	15747	1531	8618	2326	424	1673	24432	5647	10576	18,6	3,0	9,0
4	Dang'ara	173,5	12031	1136	10922	2046	294	2827	21351	2248	12268	20,4	8,0	14,9
5	Uchko'prik	228,4	11551	307	14814	1922	83	2584	32115	2264	31966	19,9	0,9	21,6
6	Qo'qon	253,7	19378	1819	19601	6340	513	3240	22474	3635	27906	18,9	2,0	20,0

Jadval Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. binoan qiyosiy baholash xususida boradi, bu qishloq joylardagi turli tumanlarda va shaharlarda mavjud bo'lgan sharoitni hisobga olib, ham strategik, ham taktik xarakterdagi tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazishga imkon beradi. Hududlarni taqsimlash, avvalo kasallanish va uning tarkibining har xil darajalariga tayanadi, biroq, bundan tashqari, u tabiiy (iqlim, landshaft) xususiyatlarni, ekologik va ijtimoiy omillarni (iqtisodiyot, xo'jalik faoliyati xarakteri sanoatda, qishloq xo'jaligida, sanoat korxonalari xususiyatlari) batafsil ekologik ta'rifi va h.k.ni hisobga olish lozimdir.

ADABIYOTLAR

1. Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi statistik ma'lumotlari. 2020 yil
2. Н.Комилова. Тиббиёт географиясининг назарий ва амалий масалалари. Тошкент. Шарқ нашриёти. 2016 йил.
3. О.М.Миртазаев, Л. П. Зуева, Г.С. Матназарова. ЭПИДЕМИОЛОГИЯ. Тошкент-2016.
4. Қўзибоева О., Исроилова О. Жанубий Фарғона ландшафтларини тадрижий ўзгаришлари билан иқлимий кўрсаткичларни ўртасидаги боғланишлар таҳлили//// Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. №3/1/1. Тошкент, 2022. -Б. 151.
5. Qo'ziboyeva O., Sobirova N. Farg'ona vodiysi landshaftlarining rivojlanish tendensiyasini o'rganilish tarixi // Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. Samarqand, 2021, 5-son. -B. 74.
6. Қўзибоева О., Ҳамедов А. Жанубий-ғарбий Фарғона ландшафтларини тадрижий ўзгариши билан иқлимий кўрсаткичларни ўртасидаги боғланишлар // Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. №3/1/1-сон. Тошкент, 2021
7. Қўзибоева О.М. Фарғона ботиғи ландшафтларини замонавий усулларда тадқиқ этиш ҳамда улар асосида ландшафтлардаги ўзгаришларни баҳолаш // Фан ва жамият. 3-сон. Нукус, 2021.-Б. 32-34.